

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA XORIJIY TILNI
O'RGGATISH METODIKASI**

Rustamova Vazira

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

Ilmiy rahbar: Zubaydov N.

Annotatsiya: ushbu maqolada yosh avlodga ingliz tilini o'rnatib borishning hae xil usullari va metodlari haqida fikr yuritiladi. Ularga bolalik chog'idan boshlab tilga mehr qo'yishi va qiziqishini uyg'otishimiz eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: xorijiy til, o'qitish metodlari, tilga bo'lgan qiziqishni oshirish, nutqni rivojlantirish.

Hozirgi davr talabiga ko'ra, xorijiy tilni bilish har bir yosh avlod uchun muim bo'lgan omil hisoblanadi. Ingliz tilini boshlang'ich sinfdan va maktabgacha ta'limda boshlab o'rnatish, qiziqishini oshirish muhim hisoblanib, buning har xil usul va yo'llari mavjud.

1. Ko'rgazmali qurollar, plakatlar va kitoblar orqali ishslash.

Ko'pincha bolalar eshitgan narsasini emas, ko'proq ko'rgan narsasini tez eslab qolishadi. Albatta, o'qitish mobaynida buyumlardan foydalanishda o'qituvchilarining metodikasi katta rol o'ynaydi. Misol uchun, tegishli so'zlarni o'rganiyotganda, siz avvalo buyumni bolaga ko'rsatib, uni gapirishga undaysiz, o'quvchilar so'zlarni talaffuz qiladi va ular talaffuz qilgan so'zni mustahkamlash uchun kartochkalardagi rasmlardan foydalanib yana bir bor yangi so'zni takror talaffuz qildiriladi. So'zlarni o'qitishda o'qituvchilar matn mazmunini belgilab olishlari va o'quvchilar e'tiborini jalb qilish uchun tarbiyachi ular bilan birlilikda so'zlarni talaffuz qilib doskaga suratini chizish orqali ularni e'tiborini tortishlari mumkin bo'ladi.

2. Sinf muhitini yaxshilash uchun qo'shiq va multfilimlardan foydalanish.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Moslashuvchan sinf atmosferasini yaratish, ba'zida har qanday ta'lim usulidan ko'ra muhimroqdir. Sinfda dars boshida inglizcha yoqimli qo'shiq bilan o'qituvchi boshchiligida barcha bolalar birgalikda qo'shiq kuylaydilar va uning ohangiga mos ravishda biroz raqsga tushadilar. Bu o'z o'zidan ularning tanalarini chiniqtirib, yanada tetik bo'lishga va qo'shiqni so'zlarini tezroq yod olishiga yordam beradi. Bundan tashqari bolalar chet tilini o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada, multfilmdagi qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlayotgan so'zlarni tushunishga harakat qiladi. Bu esa bolalar uchun til o'rganishda qiziq va samarali yo'l hisoblanadi.

3.Imo-ishoralar orqali o'rgatish.

Imo-ishora ingliz tilining eng muhim o'rgatish usulidir. O'qituvchi bolalarga biror gapni gapirganda yoki buyruq berganda, masalan, bu yoqqa keling, kitobni oching, turing, doskaga qarang kabi gaplarni ishlatganda imo ishoralardan foydalansa bolaga bu gaplar tushunarli bo'ladi va yodida qoladi. Imo-ishora usuli bolalarni mustaqil harakat qilishga va chet tilini qiziqarli o'rganishlariga yordam beradi. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ingliz tilini o'quvchilarga o'rgatish jarayonida uning fiziologik holati, Yoshi va psixologik holatiga qarab darslar o'tiladi. Asosan, xoriiy til darslarini o'tganda noan'anaviy dars shaklidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maktabgacha ta'lim jarayonida xorijiy tillarni o'rgatishning zamonaviy metodikasi blog.xabar.uz
2. Jumaniyozova. H "bolalarga til o'rgatish metodikasi" Fled.uz
3. Botirova A.A, Solova E.N. Chet tiling o'qitish metodikasi. Murakkab kurs: darslik.